

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MILLIY QADRIYATLAR
RUHIDA KAMOL TOPISHIDA XALQ O'YINLARINING PEDAGOGIK
AHAMIYATI**

Z. Azimova

AnDUPI p.f.d

F. To‘xtasinova

Maktabgacha ta’lim magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy qadriyatlar ruhida kamol topishida xalq o‘yinlarining pedagogik ahamiyati va unga qaratilgan muammolarga yechim topilgan

Kalit so‘zlar: zamonaviy inson, xalq o‘yinlari, milliy qadriyat, vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik

**PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF FOLK GAMES IN THE
DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF
NATIONAL VALUES**

ANNOTATION

This article addresses the pedagogical significance of folk games in the development of preschool children in the spirit of national values and the solution to its problems

Keywords: modern man, folk games, national values, patriotism, heroism, humanity

Mustaqillikka erishganimizdan buyon barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilayotgani barchani quvontirayotgani bejiz emas. Ayniqsa, Uzluksiz ta’limning eng birinchi bo‘g‘ini hisoblanmish Maktabgacha ta’lim tizimida ham yangicha pedagogik texnologiyalar va tajribalarning joriy etilayotgani ilgargidan ko‘ra samarali yutuqlarga erishishimizga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sistema modernizatsiyalashgani sari tilimiz va tushunchamizga yangi so‘zlar kirib kelmoqda va ulardan biri "Zamonaviy inson" tushunchasidir. Bu tushuncha bugungi kunda kelajakka va hayotga real ko‘z bilan qaraydigan, o‘z manfaatlari va haq-huquqlarini yaxshi biladigan, eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalar bilan "qurollangan", o‘z fikrlarini erkin bayon eta oladigan, imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan insonni ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Biroq, inson har qancha zamonaviylashmasin milliy ruhidan va milliy qadriyatlaridan uzoqlasha olmaydi. Chunki, bu unga ota-bobolaridan azaliy meros, qon-qoniga singgan ruhiy vositadir.

Bu vositani mahkam ushlab kamol toptirish, keyingi avlodga ham yetkazishda maktabgacha ta’lim tizimi va unda yo‘lga qo‘yilgan pedagogik jarayonning ahamiyati nihoyatda beqiyos. Negaki, "Bola hali yozilmagan oq qog‘oz". Unga qanchalik chiroqli naqshlar chizsak, ezgu g‘oyalarni yozsak, albatta, kun kelib o‘zimizga munosib xizmatlari bilan javob qaytaradi.

Bola hayotining asosiy faoliyat turi bu- o‘yin. Demak, biz o‘yin orqali bolaga ta’limni ham, tarbiyani ham, mehnatni ham o‘rgata olamiz. Faqatgina o‘yinlarimiz to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lsa...

O‘yin- qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga jalb etgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

P. F. Lestgaft "Bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar va bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega", - deya e’tirof etadi.

O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning shakliga, ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. U bola psixikasida ko‘plab jarayonlarni amalga oshiradi. Ham aqliy, ham jismoniy jihatdan faolligi ortadi. Ular kuzatuvchi, atrofni chuqur analiz qilishga, har bir predmetni yodda saqlab qolishga intiladi. O‘z sheringining xatti- harakatlariga nisbatan xurmat, jamoaviylik, yakdillikda g‘alabaga erishish va uning zavqini birgalashib his etish orqali do‘stlik, o‘zaro ishonch, ahillik singari tuyg‘ular shakllanadi.

Bu jarayonni qaror toptirisha esa asrlar sinovidan o‘tgan, eng yaxshi va ezgu g‘oyalar bilan sayqallanib bizgacha yetib kelgan xalq o‘yinlarini e’tirof etmaslikning imkoni yo‘q.

Xalq o‘yinlari shundayki, u o‘ziga xos dramatik asarday hayotning qay bir parchasi, dardi, muammosini aks ettiruvchi kichik sahna asariday bo‘lib, uning muallifi ham, ijrochisi-yu tomoshabini ham yana o‘sha bolalarning o‘zlaridir. Zero, bolalar o‘ynab zavq oladilar, o‘ynab kurashga tushadilar, o‘ynab ijod qiladilar, kashf etadilar, o‘rganadilar, g‘olib ham, mag‘lub ham bo‘ladilar, o‘ynab kuylaydilar, raqsga tushadilar. O‘yin davomida hamkorlik, hamdardlik tuyg‘usini tuyadilar, judo bo‘ladilar, yolg‘izlanadilar va yakkalik iztirobini tortadilar, beixtiyor kattalarga taqlid qiladilar, bilib- bilmay tanqid qiladilar. Shu asnosida olamni o‘rganadilar va his etadilar.

Ana shunday o‘yinlar sirasiga kiruvchi va maktabgacha ta’lim tizimida ko‘proq tavsiya etiluvchi o‘yinlardan: "Qo‘rg‘on olish" jangovar o‘yini; "Oltin darvoza", "Jik-jik", "Zum-zum", "Xurmacha bog‘i", "Moy kulcha", "Chopa turib o‘tirish", "Pishakvoy", "Yoshlam- yoshlam" singari qo‘shiq kompozitsiyaga aylangan o‘yinlarni e’tirof etishimiz mumkin.

Sanab o‘tilgan o‘yinlar orqali bolalar ajdodlariga xos ma’naviy ruh bilan oziqlanadilar, Vatanni anglash, unga mehr bilan qarash hissi uyg‘onadi, o‘zligini anglashga yo‘l ochadi, badiiy didi rivoj topadi, ichki hissiyotlari shakllanadi.

Misol tariqasida "O‘y o‘ylash" o‘yinini olsak:

- O‘y o‘ylasang,

O‘ying o‘ngisin,
Tog‘ bag‘rida yotib olsa
Qo‘ychi o‘ngisin.
Qo‘ylaringni birga boqaylik,
Dushmanlarning ko‘kragiga
O‘tlar yoqaylik.

Bu o‘yinda bola o‘ylab o‘ynaydi. Voqeani idrok qiladi. Qo‘ychi, qo‘ylar orqali mehnatkash inson va xalq boyligini his etadi. Ularga ko‘z tikkan dushmanga nafrat va himoyaga shaylik o‘yin orqali ochib beriladi. Bu esa har bir bolada go‘daklikdan vatanparvarlik pafosini singdirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin faoliyati bolani har tomonlama yetuklikka eltar ekan, ta’lim jarayonida zamonaviy o‘yinlar bilan birga xalq o‘yinlarining ham uyg‘un holatda amalga oshirilishi bizga kelajakka har tomonlama rivojlangan shaxslarni yetishtirib berishda dasturul amal bo‘lib xizmat qilsa ajab emas.

Ko‘z o‘ngimizda arzimas bo‘lib tuyulgan o‘yinlar bola rivojida shunchalik ahamiyat kasb etar ekan, nega endi bunga bee’tibor bo‘lishimiz kerak. Hatto biz kattalar ham ular bilan birga tez -tez o‘ynab tursak, o‘yinlarda bolalar kabi yashasak, biroz bo‘lsa ham unutilib qolgan qadriyatlarimizni yana qayta tiklashga, mustahkamlashga intilgan bo‘lar edik. Zero, o‘rganish, bilish va anglash uchun hech qachon kech bo‘lmaydi. Bu orqali ma’naviyatimiz qayta ochiladi, ma’rifatimiz yuksaladi. Milliy qadriyatlarimiz asrdan- asrga sayqal topib, go‘zallasha boradi.

Ma’naviyati butun xalqni esa yengib bo‘lmaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. I. Hakimova, S. Xasanova "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" majmua. Andijon-2019.
2. D. Xidoyatova "Maktabgacha pedagogika" majmua. Toshkent -2018.
3. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, N. Qayumova, M. A’zamova "Maktabgacha pedagogika " darslik. "Tafakkur" nashriyoti Toshkent-2019.
4. "O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari"- ziyonet.uz Internet materiallari.